

BOLALARGA OID AYRIM MUROJAAT SO‘ZLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Nargizaxon Nurdinbayeva

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

nurdinbayeva29@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarga oid murojaat so‘zlarining leksik, semantik va lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilingan. Til insonlar o‘rtasidagi aloqa-aralashuvni ta‘minlovchi kommunikativlik vazifasiga ega. Tilning bundan tashqari atash, ta‘sir etish, kumilyativ, umumlashtirish, farqlash, ma‘lumot berish, tavsiflash, kodlash, chaqirish, undash va modallik kabi asosiy va qo‘shimcha vazifalari bor. Bu vazifalar bevosita muloqot jarayonlarida namoyon bo‘ladi. So‘zlovchi va tinglovchining mutanosib va nomutanosib so‘zlashuv, modallik munosabatlarida tilning funksiyalari asosiy rolni bajaradi. Murojaat so‘zlarida ham tilning undash, chorlov, hissiy emotsionallik jihatlari aks etadi. Murojaat so‘zlarida har bir xalqning oilaviy munosabatlari, diskursiv muloqotda faol qo‘llanuvchi birliklarning ijtimoiy vaziyat bilan bog‘liqligi namoyon bo‘ladi. Bolalarga oid murojaat birliklarida subyektiv baho, ijobiy va salbiy xususiyatlari, konnotativ ma‘no bo‘rtirib tasvirlanadi. Ayniqsa, badiiy va so‘zlashuv uslubida bolalarga nisbatan chorlovni ifodalovchi emotsional-ekspressiv bo‘yoqqa ega bo‘lgan birliklar faol qo‘llanadi. Murojaat birliklarini ifodalagan leksemalar til egalarining ongida assotsiativ tarzda gavdalanadi. Murojaat so‘zlar, asosan, ot so‘z turkumidagi so‘zlar bilan ifodalanadi. Nutqiy muloqotda murojaat so‘zlari adresant va adresantning kasbi, lavozimi, mansabi, jinsi, ijtimoiy qatlamga mansublik darajasi, toifasi, yoshi, mavqeyini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. O‘zbek tilida bolalarga nisbatan qo‘llangan murojaat ifodalovchi leksik birliklarda erkalash, kichraytirish, suyish kabi ma‘nolari ustunlik qiladi. Badiiy matnda bolalarning xarakter xususiyatlarini, xulq-atvorini murojaat so‘zlari orqali yana aniq tasvirlanadi. Murojaat so‘zlari diskursiv shaxs nutqida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan, muloqot madaniyatini ko‘rsatuvchi milliy-madaniy xususiyatlarini o‘zida jamlaydi.

Kalit so‘zlar: murojaat shakllari, undalma, lingvomadiyatshunoslik, lingvomadaniy tahlil, ekspressiv-emotsional bo‘yoqdorlik, milliy-madaniy birlik, farzand.

Annotation: this article analyzes the lexical, semantic and linguistic features of children's address words. Language has a communicative function that provides communication and interaction between people. In addition, language has basic and additional functions such as naming, influencing, cumulative, generalizing, differentiating, informing, describing, coding, calling, encouraging, and modality. These tasks are directly manifested in communication processes. The functions of the language play a important role in the proportional and unbalanced speech and modality relations between the speaker and the listener. In the words of appeal, the aspects of the language of encouragement, invitation, and emotionality are reflected. In the words of appeal, the family relations of each nation, the connection of the units actively used in discursive communication with the social situation are shown. Subjective evaluation, positive and negative characteristics, connotative meaning are exaggerated in the reference units for children. Especially in the artistic and conversational style, units with an emotional-expressive color representing an appeal to children are actively used. Lexemes, which represent units of reference, are embodied in the mind of language speakers in an associative way. Reference words are mainly represented by nouns. Addressing words in spoken communication are performed taking into account the addressee's and the addressee's profession, position, position, gender, level of belonging to the social stratum, class, age, position. In the Uzbek language, lexical items used to refer to children

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

are dominated by such meanings as caressing, shrinking, kissing. In the artistic text, the character traits and behavior of children are clearly described through the words of reference. Addressing words include national-cultural features that are of particular importance in the speech of a discursive person and indicate the culture of communication.

Key words: forms of address, exclamatory, linguistic and media studies, linguistic and cultural analysis, expressive-emotional coloring, national-cultural unit, child.

Аннотация: в данной статье анализируются лексические, семантические и лингвистические особенности детских обращенных слов. Язык имеет коммуникативную функцию, обеспечивающую общение и взаимодействие между людьми. Кроме того, язык имеет основные и дополнительные функции, такие как называние, воздействие, накопление, обобщение, дифференцирование, информирование, описание, кодирование, вызов, поощрение и модальность. Эти задачи непосредственно проявляются в процессах общения. Функции языка играют ключевую роль в пропорциональных и неуравновешенных речевых и модальных отношениях между говорящим и слушающим. В словах обращения отражены аспекты языка ободрения, приглашения, эмоциональности. В словах обращения показаны семейные отношения каждого народа, связь активно используемых в дискурсивном общении единиц с социальной ситуацией. В эталонных единицах для детей преувеличены субъективная оценка, положительные и отрицательные характеристики, коннотативный смысл. Особенно в художественно-разговорном стиле активно используются единицы, имеющие эмоционально-экспрессивную окраску, представляющую обращение к детям. Лексемы, представляющие собой единицы референции, закрепляются в сознании носителей языка ассоциативным образом. Справочные слова в основном представлены существительными. Обращающиеся слова в устном общении выполняются с учетом адресата и профессии адресата, должности, положения, пола, уровня принадлежности к социальному слою, классу, возрасту, положению. В узбекском языке в лексике, относящейся к детям, преобладают такие значения, как ласкать, сжимать, целовать. В художественном тексте через опорные слова ярко описываются черты характера и поведение детей. Обращающиеся слова включают в себя национально-культурные особенности, которые имеют особое значение в речи дискурсивного человека и указывают на культуру общения.

Ключевые слова: формы обращения, восклицательные слова, лингвомедиаведение, лингвокультурологический анализ, экспрессивно-эмоциональная окраска, национально-культурное единство, ребенок.

XXI asr jahon tilshunosligida tarixida fanlar integratsiya jarayonlari jadal rivojlandi. Tilshunoslikda yangi paradigma – antropotsentrik paradigmanning shakllanishi natijasida til va til egasi munosabatlari antropotsentrik yondashuv orqali o'rganila boshladi.

Tilshunoslik fani tarixidagi uchinchi makroparadigma antropotsentrik paradigma (kommunikativ yoki nominativ-pragmatik paradigma) hisoblanadi. Ushbu paradigma tilni quruq struktura sifatida emas, balki jonli muloqot va kommunikatsiyaga asoslangan ochiq sistema sifatida o'rganuvchi [Рахимов, 2012: 23], til bilan bog'liq barcha lingvistik hodisalarda inson yetakchilik qilishini ta'minlovchi zamonaviy yo'nalish sanaladi.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Antropotsentrizm (yun. anthropos – odam + lot. sentrum – markaz) Tilshunoslikda: tilga inson omili nuqtayi nazaridan yondashish; lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, etnopsixolingvistika, madaniyatlararo muloqot, neyrolingvistika kabi sohalarda tilni tadqiq etishning asosiy tamoyili [Худойберганава, 2015: 21].

Prof. N.Mahmudov ta’biri bilan aytganda, til benihoya muqaddas va mo‘tabar ne’mat, u odam degan mavjudotni shakllantirgan, qavmlar o‘laroq birlashtirgan, taraqqiyot bosqichlariga olib chiqqan, ruhiy takomilga boshlagan, tafakkur gulshanining darvozalarini ochgan bemisl bir robitadir [Махмудов, 1998: 3]. Til ijtimoiy hodisa sanaladi. Til bevositida jamiyat bilan birga yashaydi va jamiyatsiz yashay olmaydi. Til millat vakillarining mentaliteti, turmush tarzi, madaniyati, tarixi, milliy an’ana va urf-odatlarini o‘zida saqlab, kelajak avlodga yetkazadi. Tilda milliy madaniyat to‘g‘ridan to‘g‘ri aks etmaydi, balki unga insonning xalq madaniyati haqidagi tasavvur va qarashlari, bilimlari ham qo‘shiladi [Тажибоев, 2020:10].

Badiiy matnni o‘rganish uchun muhim bo‘lgan antropotsentrik yondashuv uni lingvopersonologiya, matn lingvistikasi, kommunikativ tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, lingvokonseptologiya va lingvomadaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan kompleks, fanlararo tahlil qilishni nazarda tutadi [Нормуродова, 2020:15]. Ayniqsa, badiiy matnni lingvomadaniyatshunoslikning tahlil metodlari orqali tadqiq etish hozirda tilshunosligimizda ko‘zga tashlanmoqda. Ko‘plab dissertatsiya, monografiya va ilmiy maqolalarda lingvomadaniy tadqiq yetakchilik qilmoqda. Maqolamizda bolalarga oid murojaat so‘zlarini lingvomadaniyatshunoslik metodlari orqali tahlil qilishga harakat qildik. Murojaat so‘zlari antropotsentrik tilshunoslikning yangi yo‘nalishlaridan biri pragmalingvistikaning o‘rganish obyektidir. Antropotsentrik yondashuv fanlararo hamkorlikni talab qilganligi uchun bu sohaga tegishli termin lingvomadaniyatshunoslikda ham qo‘llanilib, uning o‘ziga xos milliy-madaniy xususiyatlari tahlil qilingan.

O‘zbek tilshunosligida murojaat shakllarining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari, murojaat shakllarining semantik tahlili, muloqot shakllariga bag‘ishlangan tadqiqotlar amalga oshirilgan. Z.Akbarova undalma, so‘roq va buyruq gaplarni murojaat shakli sifatida o‘rgangan. Olima o‘z tadqiqotida murojaat ifodalashning ekstralingvistik usullariga e’tibor qaratgan. S.Mo‘minov nutqiy muloqotning o‘zbek madaniyatiga xos xususiyatlari, ijtimoiy faoliyatdagi lisoniy jihatlarini o‘rgangan bo‘lsa, murojaat birliklarining deskriptiv ko‘rinishi, mazmuniy tuzilishi, konnotatsiyaning yuzaga chiqishi kabi masalalar N.Ahmedova tomonidan o‘rganilgan. Turli tizimli tillarda

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

murojaatning kommunikativ-pragmatik aspektida o‘rganilishi M.Qodirova tomonidan tadqiq etilgan [Pulatova, 2024:4].

O‘zbek filologiyasida murojaat shakllaridan “Undalma” ko‘proq tadqiq etilgan. Dastlab undalma bo‘yicha tahlillar Ayub G‘ulomov asarlarida tilga olingan. Bilamizki, undalma so‘zlovchining fikri qaratilgan shaxs yoki narsani bildiradi. Bosh kelishik shaklida bo‘ladi va boshqa gap bo‘laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaydi. Joylashuv o‘rni erkin sanalib, qolgan bo‘laklardan vergul bilan ajratiladi. Ba’zi tadqiqotchilar fikricha, murojaat shakllari undalmaga nisbatan kengroq ma’noga ega. Sh.Rahmatullayevning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” (2006) darsligida ushbu termin “undalma bo‘lak” tarzida berilgan. Undalma bo‘lak tinglovchining diqqatini gapshakl bilan anglatilayotgan fikrga jalb qilish uchun xizmat qiladi, bosh kelishikdagi sintaktik birlik bilan ifodalanadi, undash ohangi bilan aytiladi [Rahmatullayev, 2006:278].

Murojaat – lisoniy hodisa. U kommunikantlardan birining boshqasiga bo‘lgan munosabatini anglatadi. Har qanday matnning o‘z manzili – adresi va egasi mavjud, ya’ni butun bir matnning o‘zi yoki qismi ma’lum bir kommunikantga yo‘nalgan bo‘ladi [Павшанова, 2022:12].

Tadqiqot doirasiga bevosita tortilgan tahlilimizga aloqador bo‘lgan ilmiy ishlardan biri V.Giyosovanning “Bolalarga murojaatni ifodalovchi birliklarning lingvokulturologik tadqiqi” dissertatsiyasida bolalarga murojaat birliklarining til tizimidagi o‘rni, bolalarga murojaat shakllarining struktur-semantik va tematik jihatdan tasniflari, alla va badiiy matnlarda bolalarga murojaat birliklarining funksional xususiyatlari milliy-madaniy aspektda o‘rganilgan. Til birliklarini, jumladan, murojaat birliklarini sotsiolingvistik yondashuv asosida tadqiq etish jamiyatning ma’lum bir davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayotini o‘rganishga, shuningdek, tilning davriy xususiyatini, tadrijiy taraqqiyotida tilga jamiyat ta’siri nechog‘lik ekanini tahlil qilishga imkoniyat beradi [Giyosova, 2024:15]. Dissertatsiyada bolalarga murojaat shakllarining jonzot nomlari, diniy nomlari, o‘simlik nomlari, samoviy jism nomlari va oziq-ovqat nomlari bilan ifodalangan birliklari semantik tasniflangan. Biz maqolamizda ushbu tasnifdan foydalandik.

Badiiy matnda bolalarga nisbatan chaqiruv, erkalash, kichraytirish, qarindoshlik munosabatlarini ifodalash uchun so‘zlardan foydalaniladi. Bunday so‘zlar undalma, so‘roq yoki buyruq gap va boshqa emotsionallikni aks ettiruvchi so‘zlar shaklida uchraydi. Maqolada bolalarga oid ayrim murojaat so‘zlarining semantik jihatdan ma’no guruhlariga ajratilgan.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Murojaat soʻzlar ayni shu vazifa orqali soʻzlovchining, yaʼni subyektning murojaat obyektiga munosabatini ham koʻrsatadi. Shu munosabat neytral yoki ekspressiv-emotsional tushadigan murojaat boʻlishi mumkin [Ақбарова, 2007:16]

Bolalarga oid ekspressiv-emotsionallikni ifodalagan murojaat soʻzlari badiiy matnda muallifning fikrlarini taʼsirliroq aks ettirish uchun ishlatiladi. Bolalar tabiatan shoʻx, qaysar va koʻp oʻrinlarda shumlik qilishni odat qiladi.

Badiiy asarlarda bolalarga nisbatan qoʻllangan *shayton*, *haromi*, *gadoyvachcha*, *bachagʻar*, *shumtaka*, *ablah*, *chandir* kabi soʻzlarida salbiy boʻyoqdorlik kuchli ifodalangan:

1. – Ey, yoʻqollaring tomdan, nima qilib yuribsanglar, *gadoyvachchalar*.

2. – Nimaga chang burqitib yuribsang? Otni choʻchitib yubording, *ablah!* *Ablah* soʻzi xulq-atvori tuban, yaramas axloqli; Shu belgi-xususiyatga asoslangan haqoratni bildiradi [Oʻzbek tilining izohli lugʻati, 1-jild, 2022: 37]

3. – Yosh boʻlsa ham pishiq, sizlardan qolishmaydi, *chandir*, – deydi hazillashib. Men qizarib, chetga qarayman. (Bu oʻrinda *chandir* soʻzi chayir, har ish qoʻlidan keladigan maʼnosida qoʻllangan)

4. – Voy, oʻla qolay, qayoqqa, *juvonmarglar?* – oʻdagʻaylab, Turgʻunni yoʻlini toʻsadi. (Oybek, “Bolalik” qissasidan). *Juvonmarg* soʻzi izohli lugʻatda qargʻish soʻzi sifatida keltirilib, oʻlgur, yer yutgur maʼnolariga ega [Oʻzbek tilining izohli lugʻati, 2-jild, 2022:696]

5. – Voy *shayton*, uxlamaganmiding?! – dedi opam qaddini rostlab. (Oʻ. Hoshimov, *Dunyoning ishlari*)

6. – Folbinnikida, *goʻrsoʻxta*, folbinnikida! – Oyim ovozi boricha chinqirdi. – Nega Sepkilli xolamni koʻrdim, deding? (Oʻ. Hoshimov, “*Dunyoning ishlari*”)

7. – Nari tur, *itvachcha!* – deb xolajonim qulogʻimning tagiga bir tushurib qoʻydi (X.Toʻxtaboyev, “*Besh bolali yigitcha*”). It zoonimi subyektiv baho semasini ifodalashda, inson feʼl-atvori, harakatiga xos ijobiy va salbiy vaziyatlarni namoyon etishga, taʼsirchanlikka xizmat qiladi [Тошба, 2017: 23].

8. – Hoy *tentak*, bevoshlik qilib togʻangni qiynama! (S.Ahmad, “*Jimjitlik*”). Ushbu murojaat soʻzlarida tahdid, xitob, haqorat qilish nutqiy vaziyatlarda ishlatilgan.

Soʻzlarning semantik maʼnosida ham salbiylik kuchli ifodalanadi. Ayniqsa, *juvonmarg*, *goʻrsoʻxta*, *itvachcha*, *shayton* soʻzlarining konnotativ maʼnosida subyektning gʻazab va haqorati aks etgan.

Bolalarga murojaatlar baʼzan glyuttonimlar bilan ifodalanishi, baʼzi hollarda esa bu birliklar asosiy murojaatlarning tavsiflovchisi sifatida qoʻllanishi va bunda

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

atributiv xarakter kasb etishi aniqlandi [Giyosova, 2024:21]. Konnotativ ma’no shirinlik bildiruvchi otlar bilan ifodalanganda bolalarga nisbatan onaning mehri, hayajoni va erkalashi yaqqol aks etgan.

1. – Nega unday deysan, *shirin o‘g‘lim?* (X.To‘xtaboyev, “Besh bolali yigitcha”)

2. – Sovuq qotib ketibsanku, *shakartoyim.* (O‘.Hoshimov, “Dunyoning ishlari”)

Zoonimlar bilan bog‘liq murojaat so‘zlari ham ko‘p o‘rinlarda uchraydi. Hayvon nomlari orqali bolalarni chaqirish, erkalash, murojaat qilish qolgan murojaat so‘zlariga nisbatan katta o‘rinni egallaydi. Xususan, badiiy matnda *toychoq, qo‘zichoq, arslon, bo‘taloq, quralay, targ‘il* kabi hayvon nomlari bilan atash uslubiy bo‘yoqdorlikni oshiradi. Murojaat so‘zlar ko‘pincha gap o‘rtasida va oxirida qo‘llanganda subyektiv munosabatni ifodalaydi:

1. – Nega tishlaysan, *kuchukvoy?* – dedi boshimni silab. (O‘.Hoshimov, “Dunyoning ishlari”)

2. – Xo‘sh, kolxozda o‘zing nima qilyapsan, *toycham?* (Oybek, “Oltin vodiydanda shabadalar”)

3. – Kechir, *arslonim,* hozir uyingga bormoqchi edim, – dedi Xadicha xola quvonib, – kecha bosh qashishga ham vaqtim bo‘lmadi, yana tunda eshitdim.

Inson tana a‘zolari nomlari bilan atalgan so‘zlar orqali ham bolalarga murojaat qilinadi. Bu o‘rinda farzandga nisbatan yaqinlik juda kuchli ifodalanadi. O‘zbek madaniyatiga farzand tushunchasi muqaddas tuyg‘ular bilan ulug‘lanadi va o‘zida emotsioanallikni ko‘proq aks ettirgan tana a‘zolari: *ko‘z, yurak, jon, jigar, yuz, qarog‘* kabi antropomorfizmlar bilan ataladi.

1. Kimdir uni quchoqlab, peshanasini silab qichqirdi: – Yo‘lchiboy! Og‘ang o‘lsin! Voy qarddonim, *jigarim* (Oybek, “Qutlug‘ qon”)

2. – Qani, *qarog‘im,* ko‘rsat! – deydi va o‘zi ehtiyotlik bilan oyog‘imdagi kir dokani yechib, sekin bir-ikki silaydi. (Oybek, “Bolalik”)

3. – Sen aralashma, *jonim.* To‘y to‘yday bo‘lsin, – dei Sorabibi xo‘rsinib.

Konnotativ ma’no rang bildiruvchi otlar bilan ifodalangan murojaat so‘zlar ko‘proq dialoglarda beriladi. Ranglarning qo‘shimcha erkalash, suyish ottenkalari ijobiy ma’noni ifodalaydi.

1. – Endi qolganini tog‘ang yesinlar. Xo‘pmi, *oppoq bolalarim.* (S.Ahmad, “Jimjitlik”).

2. Peshin bo‘p qoldi deng, *qoravoy?* Barakalla! Umringizdan baraka toping. (O‘.Hoshimov, “Dunyoning ishlari”)

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

3. – E, gul qizim, shundamisan? Barakalla, *oppoq qizim*. – Boy bir zumgina Gulnorga kulib qaradi. (Oybek, “Qutlug‘ qon”)

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bolalarga murojaat birliklari o‘zida milliy va madaniy xususiyatlarni aks ettirib, xalq dunyoqarashi, mentaliteti bilan bog‘liq tarzda oila diskursi va turli nutqiy muloqot jarayonlarida nutqiy vaziyat va aloqa sharoiti bilan bog‘liq tarzda o‘ziga xos muayyan kommunikativ vazifani bajaradi. Bolalarga murojaat birliklari ma’lum xalq dunyoqarashi, mentaliteti bilan bog‘liq oila diskursi va turli nutqiy muloqot jarayonlarida o‘ziga xos muayyan kommunikativ vazifani bajaradi hamda umuminsoniy qadriyatlar zaminida shakllangan milliy-madaniy xususiyatlarni aks ettiradi [Giyosova, 2024:24].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Giyosova V. Bolalarga murojaatni ifodalovchi birliklarning lingvokulturologik tadqiqi: Filol. fan. falsafa. d-ri (PhD). ... diss. avtorefer. – Farg‘ona, 2024. – 59 b.
2. Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: ILM ZIYO, 2013. – 592.
3. Oybek. Bolalik. – Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat, 2019. – 272 b.
4. Oybek. Oltin vodiya shabadalar. – Toshkent: Oltin qalam, 2023. – 512b.
5. Pulatova D. O‘zbek tilida murojaat shakllarining sotsiopragsmatik tadqiqi: Filol. fan. falsafa. d-ri. ... diss. avtorefer. – Qarshi, 2024. – 536.
6. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (darslik). – Toshkent: Universitet, 2006. – 450 b.
7. Said Ahmad. Jimjitlik. – Toshkent: Sano-standart, 2021. – 384 b.
8. Xudoyberdi To‘xtaboyev. Besh bolalik yigitcha. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. – 288 b.
9. O‘tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. – Toshkent: Nurli dunyo, 2023. – 224 b.
10. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 964 b.
11. Акбарова З. Ўзбек тилида мурожаат шакллари ва унинг лисоний тадқиқи: Филол. фан. номзоди. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 53 б.
12. Махмудов Н. Тил. – Тошкент: Ёзувчи, 1998. – 40 б.
13. Менлиев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Қарши, 2004. – 173б
14. Нормуродова Н. Инглиз бадиий дискурсида антропоцентризмнинг лисоний воқеланиши: Филол. фан. д-ри (DSc). ... дисс. авторефер. – Тошкент, 2020. – 77б.
15. Ойбек. Қутлуғ қон. – Тошкент: Гафур Гулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 2019. – 190б.
16. Равшанова Р. Институционал ва спонтан нутқда мурожаат шакллари: Филол. фан. фалсафа. д-ри. ... дисс. автореф. – Жиззах, 2022. – 50б.
17. Раҳимов А. Тилни парадигмалар асосида ўрганиш муаммолари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. № 2. Б. 20-25.
18. Тажибоев Б. Ўзбек тили миллий-маданий бирликларининг ассоциатив тадқиқи: Филол. фан. фалсафа. д-ри. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 56 б.
19. Тошева З. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фан. фалсафа. д-ри. ... дисс. авторефер. – Тошкент, 2017. – 56 б.
20. Худойберганова Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2015. – 44 б.